



IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI TIL BIRLIKLARI LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA METODOLOGIYA MASALASI

Rahimqulova Lobar Hamro qizi

Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni
o‘qitish kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: lobarlobar102@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6238-3227>

UDK 372.6(021)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklarining lingvistik ekspertizasida qo‘llaniladigan metodlarning turlari va ularning ahamiyati haqida nazariy ma‘lumotlar berilgan. Tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan metodlarning ahamiyati amaliy misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, metodologiya,, tvit, izoh, postlar. e-mail, lingvistik ekspertiza, ijtimoiy tarmoq.

Abstract. This article provides theoretical information on the types of methods used in the linguistic examination of language units in social network correspondence and their significance. The significance of the methods used in the research process is illustrated by practical examples.

Keywords: method, methodology,, tweet, comment, posts. e-mail, linguistic examination, social network.

Аннотация. В данной статье представлена теоретическая информация о типах методов, используемых в лингвистической экспертизе языковых единиц в переписке социальных сетей, и их значения. Значение методов, используемых в процессе исследования, освещено на практических примерах.

Ключевые слова: метод, методология, твит, комментарий, посты. e-mail, лингвистическая экспертиза, социальная сеть.

Kirish. XXI asrning boshlarida texnika taraqqiyoti yuksalishi bilan ijtimoiy tarmoqlar insonlarning muloqot manbaiga aylandi. Muloqot xoh dialog xoh monolog shaklda bo‘lsin ma‘lum bir maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilgan muloqotning maqsadi ochiq yoki yashirin tarzda ifodalangan bo‘lishi ham mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar muloqot manbaiga aylanishi bilan bir qatorda odamlarning kundalik hayoti, hissiy va ruhiy holati bilan bog‘liq axborotni ifodalashga ham xizmat qiladi. Postlar, izohlar, emoji va boshqa lingvistik hamda paralingvistik vositalar insonning ruhiy holatini aks ettiradi. Ushbu maqola

ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning metodologik ekspertizasiga bag‘ishlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi –til birliklarini tahlil qilish va ularning ruhiy holatini aniqlashdagi ahamiyatini belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Muloqot jarayoni so‘zlovchi va tinglovchi shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladi. Ma‘lum bir axborotda shaxsning ruhiy holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozishmalarda qo‘llanilgan til birliklarini grafeologik tahlil qilish matnda ochiq ifodalab berilmagan yashirin ma‘noni aniqlash imkonini beradi. Bu esa kriminalistik, teroristik, suiqasd, shaxsni obro‘sizlantirish kabi xarakterga ega bo‘lgan matnlarni ochiqlash orqali turli jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oydinlashishiga yoki oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari bu kabi tahlillar kishilar o‘rtasidagi konfliktlarni aniqlash va bartaraf etishga ham birlamchi vosita vazifasini bajaradi.

1. Ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy holat ifodasi

Ijtimoiy tarmoqlarda shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Lingvistik birliklar – so‘zlar, iboralar, sintaktik tuzilmalar (masalan, “charchadim”, “xursandman”, “qo‘rqayman”, “yuragim siqilyapti”);

Audio ko‘rinishidagi matnlarda lingvistik birliklarga qo‘shimcha tarzda ovozda titroq, hayajon, qo‘rquv kabi omillar ham mavjud bo‘ladi.

Paralingvistik birliklar – emoji, gif, stikerlar va boshqa vizual vositalar;

Grafik va punktuatsion vositalar – katta harflar, nuqta yoki tinish belgilarining ko‘paytirilishi (“Juda xursandman!!!” yoki “Hmm...”, “nima????”). Kishi ism-familiyasining kichik harflar bilan yozilishi.


Bu birliklar ruhiy holatni bevosita yoki bilvosita ifodalash imkoniyatiga ega.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida lingvistik ekspertizasi:

- Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasi;
- E-mail xabarlari lingvistik ekspertizasi;
- Mikroblok (kommentariy, tvit) larning lingvistik ekspertizasi;
- Ekstermistik ruhdagi ijtimoiy tarmoq yozishmalari lingvistik ekspertizasi;
- Logotiplar lingvistik ekspertizasi;
- Konfliktli yozishmalar lingvistik ekspertizasi;
- Siyosiy mazmundagi yozishmalar lingvistik ekspertizasi;
- E‘lon mazmunidagi yozishmalarining lingvistik ekspertizasi;
- Xabar mazmunidagi ijtimoiy tarmoq matnlari lingvistik ekspertizasi;
- Da‘vat, chorlov,, buyruq mazmunidagi ijtimoiy tarmoq ijtimoiy tarmoq matnlari lingvistik ekspertizasi;
- Tahdid mazmunidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasi;
- Milliy, diniy, etnik, irqiy adovatni qo‘zg‘atuvchi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasi;
- Audio shakldagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasi;

- Video ko‘rinishdagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik ekspertizasi.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish jarayonida quyidagi sabablar lingvistik-ekspert uchun aniq xulosa berishida maummoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin:



Natijalar va muhokama. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishda metodlarning ahamiyati o‘ta muhimdir. Lingvist-ekspert bu borada ijtimoiy tarmoq turi va yozishma shaklidan kelib chiqib to‘g‘ri va maqbul metodni tanlay olishi kerak. Lingvist-ekspert metodlarga, lingvistik, psixologik, huquqiy (agar ehtiyoj bo‘lsa diniy ulamolar, huquqiy soha vakillari, siyosatshunoslar bilan hamkorlikda ish olib boradi) bilimlariga tayangan holatda xulosasini beradi. Ammo lingvist-ekspert xulosasi hal qiluvchi hisoblanmaydi. Sud hukm qiladi va lingvist-ekspert xulosalari sud qarorida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqning turlari bir qancha bo‘lishi bilan birga yozishmalar ham turli mazmun va shaklga ega. Shu sababli bir metod har qanday yozishma shaklini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishga xizmat qilmaydi. Har bir yozishmaning xususiyatlaridan kelib chiqib lingvist-ekspert tomonidan metod tanlanadi.

Lingvistik ekspertizada umumiy va xususiy metodlardan foydalaniladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalari lingvistik ekspertizasining dastlabki bosqichida deduktiv va induktiv tahlil metodlaridan foydalaniladi. Bu metodlar asosan konfliktli yozishmalarda qo‘llaniladi. Deduksiya tahlil metodi – umumiy ma‘lumotlar asosida xususiy ma‘lumotlar hosil bo‘ladi. Induksiya- Yakka holatdagi fakt, hodisa, va jarayonlarni kuzatish orqali shu kuzatishlarga tayangan holda ishlab chiqarilgan umumiy xulosalar.

Yuqoridagi ikkala metod mantiqqa asoslangan metodlardir. “Mantiq insonlarni bilish jarayonidagi turli xato adashishlarni qanday qilib aniqlashlardan saqlaydi [1] “Mantiq bilinganlar yordamida bilinmaganlarni qanday qilib aniqlashni ko‘rsatadigan haqiqat va haqiqatsifat bilim va yolg‘on nima ekanligini hamda ular qanday turlarga ega ekanligini hamda ular qanday turlarga ega ekanligini aniqlab beradigan ilmdir” [2]

Instagram ijtimoiy tarmog‘ining telegram_yulduzlari blogida Ism-familiyasi noma‘lum bo‘lgan qizning o‘z Instagram sahifasidagi videomurojaati joylangan. Bu videomurojaatdagi qizning so‘zlarini deduktiv va induktiv metodi asosida lingvistik ekspertizadan o‘tkazamiz.

1-videoning yozma shaklga o‘tkazilgan ko‘rinishi.

“Spitsalniy ko‘chaga chiqsam yuzimni bor-ku siryoziy mana shunaqa yuraman-da. Lichniy raz hech kim gapirmasin potom shto man bor-ku man chidolmayman qachonki manga

gapiradi vapshe anovi bo‘p dutlanib ketaman bor-ku. Yoki manga yaxshi gapirish kerak yoki neto gapirsa tiqaman-da realniy tiqaman. Odam uji nima qilishni bilmayapti. Blya o‘z-o‘z manashayra yurgim kemayapti bor-ku, ko‘chada naxxuy yurgim kemayapti. Hammasi eshak naxxuy sassiq krisa naxxuy pech. Ezaybal bla bir taksiga o‘tirmasa bo‘maydiyay. Bitta bir o‘tirsang bir Surxondaryolik deydi. Bittasiga o‘tirsang kettu ichmaymizmi? Bittasiga o‘tirsam kettu mehmon qiliylu unay-munnay. Yoptivayamat sila taksichila blat silar taksichilar naxxuy ishingni qiliylar naxxuy gaprasilar blat yibanashkiy o‘zicha blat. Uff vapshe tutlanib ketdim bor-u”

2-videoning yozma shaklga o‘tkazilgan ko‘rinishi. “Onasini bor-u shu Toshkentlilarni onasiniToshkentlilar xaromi man uchun bor-u xaromi pedarasi bor-u. Taksiga o‘tirdim karochoi vay siz shottanmassiz devottidi karochochi tipa shivayiz to‘g‘ri kemapti Surxondaryodanmisiz? Ha dedim nima minsimaysanmi dedim Surxondaryoni blat tpa odamlani nima ajratvossan dedim pedaras dedim karochoi san ko‘rmagan narsalarni man davnoi davno ko‘rib bo‘lganman san taksi qilur dedim. Yibanashka blat shunnay yoqtirmayman shu Toshkentlilar pedaras hammasi pedaras. O‘zlari bir chumoshnik bor-ku chumo bor-ku lox. Yana o‘zicha blat kibr bilan kim kimdi o‘zini yasab oladi yoptivayamat blat gandoni naxxuy”

Ruhiy holatni ifodalovchi til birliklari	Chetdan o‘zlashgan so‘zlar	Haqorat mazmunidagi so‘zlar
Chidolmayman	Spitsalniy	tiqaman
Dutlanib ketaman	siryoziy	eshak
Yaxshi gapirish kerak	Lichniy raz	sassiq
Odam nima qilishni bilmayapti	Potom shto	krisa
Ko‘chada yurgim kemayapti	vapshe	pech
Uf	realniy	zaybal
Shunnay yoqtirmayman	uji	Onasini.....
minsimaysanmi	yoptivoyamat	xaromi
Odamlani ajratvossanmi	yibanashkiy	pedaras
	vapshe	lox
	naxxuy	
	blya	
	karoche	
	tipa	
	gandon	

1-jadval. Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi 1-2-videomurojaatlar matnidagi til birliklari. Ruhiiy holatni ifodalovchi til birliklari so‘zlovchi shaxs tashqi shaxs va omillar ta‘sirida vaqtinchalik ruhiy bosim holatida ya‘ni o‘ta asabiylashgan negativ kayfiyatda ekanligini ko‘rsatadi.

Chetdan kirib kelgan so‘zlar orasidagi gandon so‘zi salbiy so‘z hisoblanadi. [3:96] Blyad aslida blyad nutq vaziyatidan kelib chiqib turli xil ma‘nolarni ifodalashga xoslangan. muallifning psixologik xarakterini, ruhiy holatini ham ko‘rsatish xususiyatiga ega. BLYAD-1 - keskin salbiy ism (*ismi* , kimningdir/bir narsaning; o'ta salbiy baho/belgi yoki kimnidir to'g'ridan-to'g'ri haqorat qilish. 1 va 3 ma'nolariga ko'ra, eng ko'p qo'llaniladigan so'kinish so'zlardan biri. [4] Haqorat mazmunidagi so‘zlar sirasiga kiruvchi eshak,xaromi, onasini....pedaras so‘zlari haqorat so‘zlar sirasiga kiradi.

Bu videomurojaatlarda bir nechta kishilar ta‘sirida so‘zlovchining ichki emotsiyasi boshqarilmagan holatda ya‘ni ruhiy bosimda barcha umumiy haqorat mazmunida qo‘llangan. Aynan ruhiy bosimni keltirib chiqargan sabab bu shafyorlar tomonidan qo‘llanilgan turli shaxsiyatga tegadigan gaplar va eng muhimi irqiy kelib chiqishni tanqid ostiga olish, millatchilik ruhidagi so‘zlar deya baholangan. Buning dalili sifatida o‘z shevasida qo‘llanilgan “minsimaysanmi”, “odamlani ajratvossanmi” jumllalarini keltirish mumkin. Zaybal so‘zi ham shaxsning ruhiy holarini ifodalovchi so‘zlar sirasiga kiradi.Bu matndagi lingvistik belgilarga qarab so‘zlaovchining ruhiyatida idiolektik belgini yashirishga urinish ya‘ni shevalarga taqlid qilish ko‘zga tashlanadi.Bundan tashqari psixologik holatini ko‘rsatuvchi turli lingvistik belgilar ham mavjud:

- Matn mazmuniga mos bo‘lmagan chet so‘zlarni qo‘llash;
- Bir so‘zni bir o‘rinda qayta-qayta qo‘llash;
- Matn mazmuniga semantik mos bo‘lmagan gaplar va jumllarni qo‘llash;
- Bir fikr tugamasdan ikkinchi bir fikrning boshlanib ketishi.

“Lingvistik ekspertologiyada samarali metodlar G.V.Kusov tomonidan quyidagicha ko‘rsatiladi:

- komponentlarni tahlil qilish metodi;
- stilistik tahlil metodi;
- kontekstologik tahlil metodi;
- freym tahlil metodi;
- mantiqiy va grammatik tahlil metodi;
- audit-perspektiv tahlil metodi;
- nutqni tahlil qilish metodi;
- lingvistik eksperiment metodi.” [5]

Jahonda va respublikamizda mavjud sud ekspertizasi markazlarida lingvistik ekspertizani amalga oshirish bo‘yicha quyidagi metodlar qo‘llaniladi va markaz saytida o‘z aksini topadi:

- leksik tahlil;
- morfologik tahlil;

- semantik tahlil;
- sintaktik tahlil;
- grammatik tahlil;
- uslubiy tahlil [6]

Xulosa. Ekspertiza natijalari va tahlil qilish muammolari

Ijtimoiy tarmoq yozishmalari bo‘yicha ruhiy holatni aniqlashda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin: Ko‘p ma’nolilik – ayrim so‘zlar turli kontekstlarda har xil ma’no kasb etishi mumkin. Ironiya va kinoya – matnning bevosita mazmunidan farqli ruhiy holatni ifodalashi mumkin. Kodlangan muloqot – ba’zi shaxslar o‘z hissiyotlarini bevosita emas, balki metaforalar yoki slang orqali ifodalaydi. Bu muammolarni yengish uchun ekspertizaga turli yondashuvlarni integratsiya qilish muhimdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy holatni ifodalovchi birliklarning metodologik ekspertizasi inson psixologiyasini chuqurroq tushunish va jamiyatdagi psixologik tendensiyalarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Lingvistik, sentiment, semantik va psixolingvistik tahlil usullari ushbu jarayonni aniqroq amalga oshirishga yordam beradi. Kelajakda bunday tadqiqotlar NLP algoritmlarini takomillashtirish va sun’iy intellekt asosida ruhiy holatni aniqlashni optimallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Farobiy Mantiqqa kirish. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mantiq>
2. Abu Ali Ibn Sino Kitob ash-shifo, Kitob an-najot, Donishnoma.1031-1039.
3. И.А.Ярощук,Н.А.Жукова, Н.И.ДолженкоЛингвистическая экспертиза: учебное пособие – Белгород : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 96 с.
4. Кусов Г.В.Судебная лингвистическая экспертиза: понятие,принципы, процессуальное значение.
5. Монография Текст Г.В. Кусов. Краснодар: ИздательскийДом- ЮГ, 2012
6. Musulmonova O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza
7. qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. Qo‘qon– 2022